



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**8-Kavkaz matematika olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi
ishtirokini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4306сон hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtidorli o'quvchilar o'rtaida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida" 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Kavkaz matematika olimpiadasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan Maqomi asosiy olimpiadalarning respublika bosqichiga tenglashtirilgan mintaqaviy xalqaro fan olimpiadalari ro'yxatiga kiritilganligi;

8-Kavkaz matematika olimpiadasi (keyingi o'rinnarda – xalqaro olimpiada) tashkiliy qo'mitasining 2023-yil 17-fevraldagi xatiga muvofiq Adigey Respublikasida (Rossiya Federatsiyasi) o'tkazilishi inobatga olinsin.

2. Xalqaro olimpiadada ishtirok etadigan terma jamoa tarkibi 4 nafar ishtirokchi va 1 nafar jamoa rahbaridan iborat ekanligini inobatga olgan holda, 2023-yil 18-19-fevral kunlari o'tkazilgan Nufuzli xalqaro olimpiadalarga saralashning II bosqichi natijalariga ko'ra yuqori natijalarni qayd etgan 10-11-sinf o'quvchilaridan 2 nafar, 8-9-sinf o'quvchilaridan 2 nafar iqtidorli yoshlar O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga kiritilsin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalqaro olimpiadada O'zbekiston terma jamoasining onlayn tarzda ishtirok etishi belgilansin.

4. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (N.Husanboyeva) Yunusobod tumani axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan 9-sonli mакtabda 5-martga qadar xalqaro olimpiada o'tkaziladigan auditoriyalarni to'liq texnik ta'minlash hamda kompyuter qurilmalarini butunjahon internet tarmog'iga ulanishini sifatli tashkil etilishini ta'minasin.

5. Buxoro viloyati maktabgacha va mакtab ta’limi boshqarmasi (F.Qurbanov)ga:

O‘zbekiston terma jamoasi tarkibiga kiritilgan o‘quvchilarining xavfsizligini ta’minlagan holda, kuzatuvchi rahbarligida Toshkent shahriga belgilangan muddatlarda kelib-ketishlarini ta’minlash;

O‘zbekiston terma jamoasi tarkibiga kiritilgan o‘quvchilarining xalqaro olimpiadada qatnashishlari uchun ota-onalarining yozma roziliklarini olish vazifalari yuklatilsin.

6. Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi boshlig‘i (U.Raxmonov)ga:

O‘zbekiston terma jamoasi a’zolarining xalqaro olimpiadada ishtiroki mobaynida xalqaro olimpiada nizomiga, sanitariya-gigiyena hamda yong‘in va texnik xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etilishini nazorat qilish;

xalqaro olimpiadada O‘zbekiston terma jamoasi ishtiroki, o‘quvchilarining ishlarini xalqaro olimpiada hakamlar hay’ati tomonidan baholanishi va apellyatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish;

xalqaro olimpiada natijalari bo‘yicha Vazirlik rahbariyatiga ma’lumot berish vazifalari yuklatilsin.

7. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan barcha o‘quvchilar va ularning ustozlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiyl o‘rtta ta’lim tashkilotlari, akademik litsey va kasbhunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida nizomda belgilangan pul mukofotlari bilan har yili an’anaviy tarzda tashkil qilinadigan xalqaro olimpiada g‘oliblarini taqdirlash marosimida rag‘batlantirilishi inobatga olinsin.

8. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishslash boshqarmasi (D.Sobirova) xalqaro olimpiada jarayonlari va taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil 6-mart,

49 - son



X.Umarova

